INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash bo‘yicha Finlandiya va Germaniya tajribasi: qiyosiy-huquqiy tahlil

Bekmuxammadova O‘g‘iloy Ismoil qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
bekmuhammadiyevaogloy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashning huquqiy mexanizmlari Finlandiya va Germaniya misolida qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu mamlakatlarning konstitutsiyaviy kafolatlari, Germaniyaning “Bismark” sug‘urta tizimi ilmiy tahlil qilingan va mehnat huquqi normalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. ijtimoiy adolat, tenglik, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy himoya, konstitutsiyaviy huquq, Finlandiya, Germaniya, Bismark modeli.

Аннотация. В данной статье проведён сравнительно-правовой анализ правовых механизмов обеспечения социального равенства и справедливости на примере Финляндии и Германии. В исследовании научно проанализированы конституционные гарантии указанных стран, германская страховая система «Бисмарка», а также изучены нормы трудового права. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы социальной защиты в Узбекистане.

Ключевые слова. социальная справедливость, равенство, социальное страхование, социальная защита, конституционное право, Финляндия, Германия, модель Бисмарка.

Abstract. This article presents a comparative legal analysis of the legal mechanisms for ensuring social equality and justice, drawing on the examples of Finland and Germany. The study provides a scholarly examination of the constitutional guarantees of these countries, Germany's Bismarckian insurance system, and the norms of labour law. Based on the findings of the research, practical recommendations have been developed for improving the social protection system in Uzbekistan.

Keywords. social justice, equality, social insurance, social protection, constitutional law, Finland, Germany, Bismarck model.

Kirish. Ijtimoiy tenglik va adolat masalasi zamonaviy huquqshunoslikda markaziy mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. XXI asrda globallashuv, raqamli iqtisodiyot va demografik o‘zgarishlarda fuqarolarning ijtimoiy himoya huquqini ta’minlash yanada murakkablashmoqda. Bu borada rivojlangan demokratik davlatlarning tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston uchun muhim metodologik manba hisoblanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - Finlandiya va Germaniyada ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini qiyosiy tahlil etib, ularning O‘zbekistonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jihatlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda ham adolat va ijtimoiy tenglik masalasi mustaqillik yillarida chuqur falsafiy, ijtimoiy va huquqiy tahlil markazida bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlarida “Adolat – bu eng oliy mezon” degan g‘oyani ilgari surib, jamiyatdagi barcha islohotlar aynan adolat tamoyiliga asoslanishi kerakligini qayd etadi.[1] Michael Walzer adolatni murakkab ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va o‘zining “Adolat sferalari” (1983) asarida quyidagilarni ta’kidlaydi: har bir ijtimoiy resurs o‘ziga xos “adolat sferasi”ga ega, masalan,

[1] Sh. M. Mirziyoyev ”Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston. (2020).

boylik, bilim, siyosiy hokimiyat va boshqalar. Bir sferadagi ustunlik boshqa sferalarga ta'sir qilmasligi kerak (masalan, boylik siyosiy hokimiyatni nazorat qilmasligi lozim).[2] Rawlsning fikricha, adolat insonlarning "bilmaslik pardasi" holatida, ya'ni ularning ijtimoiy mavqei va shaxsiy manfaatlaridan xoli holatda qabul qilinishi lozim. [3] Shuningdek Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) "Ijtimoiy adolat to'g'risida" gi deklaratsiyasining qabul qilinishi ijtimoiy adolatga sadoqatning namunasidir. Deklaratsiya bandlik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy muloqot hamda mehnatdagi asosiy tamoyillar va huquqlar orqali barcha uchun adolatli natijalarni kafolatlashga qaratilgan. XMTning "Ijtimoiy adolat to'g'risida" gi deklaratsiyasi 1944-yildagi Filadelfiya deklaratsiyasi va 1998-yilgi "Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi deklaratsiyada belgilangan tamoyillarni aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy tahlil, tizimli va normativ - huquqiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Jamiyatning teng imkoniyatlarga ega bo'lishida davlatni tenglikni amalda ta'minlash bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini talab qiladi. Shuning uchun davlat qonun yo'li bilan shart-sharoitlarning tengligi yagona mezonlarini belgilaydi, hamda ayrim toifadagi odamlar uchun teng sharoitlarni iqtisodiy jihatdan ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

1917-yil 6-dekabrda mustaqillikka erishgan Finlandiya, XX asr davomida o'zining noyob ijtimoiy-siyosiy modelini yaratgan. Finlandiya konstitutsiyasi va qonunchilik tizimi ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlashning samarali mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiya inson qadr-qimmatining daxlsizligini, shaxs erkinligi va huquqlarini kafolatlaydi, hamda jamiyatda adolatni ilgari suradi. Finlandiya tinchlik va inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek jamiyatni rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlikda ishtirok etadi.[4] Jamiyatda adolatni targ'ib qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lib, bu mamlakatning Nordik farovonlik davlati modeliga asoslanganligini ko'rsatadi. Ushbu modelda davlat fuqarolar uchun ijtimoiy ta'minot, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini taqdim etish orqali tenglikni ta'minlaydi. Finlandiya o'zining yuqori darajadagi ijtimoiy xizmatlari va tenglikka sodiqligi bilan dunyoda yetakchi hisoblanadi. Bundan tashqari Finlandiya Konstitutsiyasining 2-bobi aynan "Asosiy huquqlar va erkinliklar" deb nomlanadi. 6-moddasida har kim qonun oldida tengdir, hech kimga asosli sabablarsiz jinsi, yoshi, kelib chiqishi, tili, dini, e'tiqodi, fikri, sog'lig'i, nogironligi bo'lganligi yoki shaxsiga doir boshqa belgilariga ko'ra noteng munosabatda bo'lish mumkin emasligi belgilangan. Finlandiya Konstitutsiyasining boshqa moddalari ham ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, Finlandiya Konstitutsiyasining 16-moddasida ta'lim olishdagi teng imkoniyatlar kafolatlanadi, 18-moddada har bir fuqaroning erkin kasb tanlashi va mehnat qilish huquqi ta'minlanadi, 19-moddada nogironlik, ishsizlik va qarilik kabi holatlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini kafolatlaydi.

Germaniyada XIX asrning 80-yillarida "ijtimoiy davlat" atamasi bilan bir qatorda boshqa tushuncha - "farovonlik davlati" paydo bo'ldi. "Farovonlik davlati" siyosati o'zining barcha fuqarolari turmushini yaxshilashga yo'naltirilganligini anglatardi. Bunday siyosatning asosini fuqarolarga ijtimoiy huquqlarni kafolatlash, davlatning esa o'z zimmasiga ijtimoiy mas'uliyatni olishi deb hisoblangan. Germaniyada 1871-yilda tarixda birinchi marta ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan davlat ijtimoiy sug'urtasi joriy etildi. 1880-yilda ushbu davlat tibbiy yordam ko'rsatishni moliyalashtirishni boshladi, 1883-yilda esa kasallanish bo'yicha nafaqa to'lashga kirishildi. Germaniyada 1910-yilda majburiy pensiya sug'urtasi ham joriy etildi.[5]

Germaniya konstitutsiyasining 3-moddasi qonun oldida tenglikni, shu jumladan jinsi, kelib chiqishi va irqi bo'yicha kamsitmaslikni taqiqlaydi. Shuningdek, davlat erkaklar va ayollar tengligining

[2] Michael Walzer. Spheres of Justice. https://academic.oup.com/edited-volume/34715/chapterabstract/296450735?redirectedFrom=fulltext

[3] John Rawls. Political theory. https://plato.stanford.edu/entries/rawls

[4] Ministry of Justice, Finland. (2011). *The Constitution of Finland (731/1999, amendments up to 1112/2011)*. Retrieved from https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1999/en19990731.pdf

[5] G.Q. Abduraxmanova, X.X. Abduramanov. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti // akademik Q.X.Abdaraxmanov tahriri ostida. - T.: ≪Fan va texnologiya≫, 2018, 312 bet.

amalda ta’minlanishiga ko‘maklashadi, hamda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yordam berishi belgilangan.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot Finlandiya va Germaniyaning ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash bo‘yicha turli, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi huquqiy yondashuvlarini namoyish etdi. Finlandiya davlati modeli barcha fuqarolar uchun bir xil ijtimoiy kafolatlarni taqdim etadi. Konstitutsiyaviy normalar bevosita sud orqali himoya qilinadigan huquqlar sifatida amal qiladi va ijtimoiy tengsizlik minimallashtiriladi. O‘zbekiston ijtimoiy islohotlari kontekstida Germaniya modeli. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi islohotlar Germaniya tajribasini chuqur o‘rganishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar Germaniyaning bandlikni faollashtirish mexanizmlari bilan ko‘p jihatdan hamohangdir. Biz uchun Germaniya tajribasi shunchaki nazariya emas, balki professional ta’lim tizimini isloh qilish, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va mehnat bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim yo‘l xaritasidir. Germaniya ijtimoiy himoya tizimi o‘z-o‘zini moliyalashtiruvchi beshta asosiy sug‘urta yo‘nalishiga tayanadi: tibbiy sug’urta, pensiya, ishsizlik parvarish va baxsiz hodisa sug’urtasi. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya asosan budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini mustaqil moliyaviy institut sifatida shakllantirish lozim. Bunda ijtimoiy soliqning bir qismini shaxsning individual pensiya va tibbiy sug‘urta hisobiga yo‘naltirish mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sh. M. Mirziyoyev ”Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston. (2020).
2. Michael Walzer. Spheres of Justice. https://academic.oup.com/edited volume/34715/chapterabstract/ 296450735?redirectedFrom=fulltext
3. John Rawls. Political theory. https://plato.stanford.edu/entries/rawls/
4. Ministry of Justice, Finland. (2011). *The Constitution of Finland (731/1999, amendments up to 1112/2011)*. Retrieved from https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1999/en19990731.pd
5. G.Q. Abduraxmanova, X.X. Abduramanov. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti // akademik Q.X.Abdaraxmanov tahriri ostida. - T.: ≪Fan va texnologiya≫, 2018, 312 bet.